



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'RTA OSIYO TUPROQLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Sheraliyeva Munisa Abdurahim qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada O'rta Osiyo mintaqasining tabiiy resurslari va qishloq xo'jaligi salohiyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda uchraydigan asosiy tuproq turlari, jumladan, bo'z tuproqlar, cho'l va yarim cho'l tuproqlari, sho'rxok hamda tog' hududlari tuproqlari haqida umumiy ma'lumot beriladi. Shuningdek, ularning hosildorlik darajasi, fizik-kimyoviy xususiyatlari va qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada tuproqlardan oqilona foydalanish, sug'orish tizimlari, meliorativ tadbirlar hamda yer resurslarini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Аннотация: Данная статья имеет большое значение для изучения природных ресурсов и сельскохозяйственного потенциала Центральной Азии. В статье представлена общая информация об основных типах почв, встречающихся в Центральной Азии, включая серые почвы, пустынные и полупустынные почвы, засоленные почвы и почвы горных районов. Также рассматриваются их уровни плодородия, физико-химические свойства и сельскохозяйственное использование. Особое внимание уделяется вопросам рационального использования почв, ирригационных систем, мер по мелиорации земель и охране земельных ресурсов.

Abstract: This article is of great importance in studying the natural resources and agricultural potential of the Central Asian region. This article provides general information about the main soil types found in Central Asia, including gray soils, desert and semi-desert soils, saline soils and soils of mountainous regions. It also covers their fertility levels, physicochemical properties and agricultural uses. The article pays special attention to the issues of rational use of soils, irrigation systems, land reclamation measures and protection of land resources.

Kalit so'zlar : Chirindili tuproqlar ,taqirli tuproqlar ,eroziya , o'tloq allyuvial tuproqlar

Kirish : O'rta Osiyo hududi o'zining tabiiy-iqlim sharoiti, geologik tuzilishi va landshaft xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud tuproqlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular asosan cho'l, yarim cho'l, tog' va voha zonalarida shakllangan. O'rta Osiyo tuproqlari insoniyat uchun muhim tabiiy resurs





hisoblanadi, chunki ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda tuproqlardan oqilona foydalanish, ularni degradatsiyadan saqlash va unumdorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik keng rivojlangan hududlarda sho'rlanish, eroziya va boshqa salbiy jarayonlar tuproq sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli O'rta Osiyo tuproqlarining turlari, ularning xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.²⁶

Asosiy qism: O'rta Osiyoda tarqalgan tuproqlar hosil bo'lishi va unumdorlik darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi: 1) cho'l tuproqlari; 2) bo'z tuproqlar; 3) tog'-o'rmon-dasht tuproqlari; 4) baland tog' tuproqlari.

Cho'l tuproqlari. O'rta Osiyoning cho'l zonasi Turon tekisligini egallagan bo'lib, u shimolda qo'ng'ir tuproqli chalacho'l zonasi bilan,

janub va sharq tomonlarda esa Kopetdog', Pomir-Oloy va Tyanshan tog'larining bo'z tuproqli etaklari bilan chegaralanadi.

Cho'l zonasida, asosan, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, taqir va taqirli tuproqlar, cho'l qumli tuproqlar va o'tloq-alluvial tuproqlar tarqalgan.

Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar qadimgi qoldiq qirlar va tog' etaklaridagi toshloq yerlarda paydo bo'lgan. Bu tuproqlar tarkibida shag'al va toshlar ko'p. Tuproq hosil qiluvchi ona jins uncha qalin emas (1-2 m), tuproq tagida shag'al qatlamlari joylashgan.

Tuproqning yuza qatlamida 0,2-0,3 foiz chirindi bor. Chirindili qatlamning qalinligi 25-35 sm. Tuproqda azot kam, ammo fosfor ko'p. Karbonat esa 5-7 foizga boradi. Bu tuproqlar, odatda, 20-30 sm chuqurlikdan boshlab sho'rlangan.

Surqo'ng'ir tuproqlar unumdorligi past bo'ladi. Suv chiqarib, loyqa yotqizish, sho'rini yuvish, o'g'itlash bilan tuproq unumdorligi oshiriladi.

Taqir va taqirli tuproqlar qadimgi alluvial tekisliklarda, ayniqsa, daryolarning delta tekisliklarida, tog' etaklaridagi qiya tekisliklarda tarqalgan.

Taqirda chirindi juda oz (0,3-0,7 foiz) bo'ladi. Chirindili qatlamning qalinligi 15-25 sm keladi, tarkibida azot kam.

Taqirli tuproqlar tarkibida chirindining ko'pligi (0,7-1,2 foiz) hamda chirindi qatlamining qalinroq (50 sm gacha) bo'lishi bilan taqirlardan farq qiladi. Ularning ostki qatlami yerosti suvining tarkibi va joylashishiga qarab birmuncha sho'rlangan bo'ladi.





Cho'llarning qumli tuproqlari qum bilan qoplangan tekisliklar va qumtepalarda tarqalgan.²⁷

Qumli tuproqlarda chirindi va oziqa moddalar kam, biroq tegishli agrotexnika tadbirlarini qo'llash orqali bu tuproqlarning unumdorligini oshirish mumkin.

O'tloq-alluvial tuproqlar Amudaryo, Sirdaryo, Ili kabi yirik daryolarning deltalarida katta maydonlarni ishg'ol etadi. Bu maydonlar qadimdan sug'orilib, dehqonchilik qilib kelinayotganligidan yerosti suvi yuzada (1-2 m) joylashgan, ko'pincha sho'rlangan bo'ladi. Bu tuproqlarda chirindi miqdori 1-1,5 foizni tashkil etadi. Bo'z tuproqlar Tyanshan, Pomir-Oloy, Kopetdog' tizma tog'lari etaklarida va tog' etagidagi qiyaliklarda hosil bo'lgan. Bu xil tuproqlar tog' etaklarida dengiz sathidan 250-300 m dan shimolda 1000-1100 m gacha, janubda 1400-1500 m gacha bo'lgan balandliklarda tarqalgan. Bo'z tuproqlar mintaqasida yoz issiq bo'ladi. Tog'ga ko'tarilgan sari harorat biroz pasayadi. Yog'in ham cho'ldagidan ko'proq: bir yilda tog'ning quyi qismida 200-300 mm dan yuqori qismida 300-500 mm gacha yog'in tushadi. Bu bahori g'alla yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bo'z tuproqlar mineral tarkibining asosiy qismini lyoss jinslar tashkil etadi.²⁸

Tog'larda yuqoriga ko'tarilgan sari tuproq tarkibidagi chirindi miqdori oshib borib, tuproq unumdor bo'la boradi. Masalan, och bo'z tuproqlarda chirindi 1,0-1,5 foiz bo'lsa, oddiy bo'z tuproqlarda 1,5-2,5 foizga boradi, to'q bo'z tuproqlarda esa 2,5-4,0 foizgacha yetadi. O'rta Osiyo o'lkasining asosiy sug'oriladigan dehqonchilik yerlari mana shu bo'z tuproqlar mintaqasida joylashgan.

Tog'-o'rmon-dasht tuproqlari 1100-1400 m dan 2500-2600 m gacha balandlikda joylashgan. Daraxtsiz yerlarda eng ko'p tarqalgan tuproqlar qora tuproqsimon tog'-dasht tuproqlaridir. Bunday tuproqlarda chirindi juda ko'p (4-6 foiz), sho'rlanish bo'lmaydi, vegetatsiya davri mobaynida yer yuzasi qalin o't o'simliklari bilan qoplanib yotadi. Bu tuproqlar eng unumdor tuproqlar hisoblanadi. Odatda, bu tuproqlar mevali daraxt o'simliklari, tokzorlar bilan band bo'ladi.

Baland tog' tuproqlari. Baland tog' mintaqasi tog' yaylovlaridan iborat. Bu mintaqada 2 ta kichik mintaqada: subalp va alp mintaqalariga ajratiladi. Subalp mintaqasi tuproqlari G'arbiy Tyanshanda 2500-2600 m, Hisor tizmasida 3100-3200 m, Pomirda esa 3500 m dan balandda tarqalgan. Alp mintaqasi tuproqlari 3000-3500 m va undan ham balandda joylashadi

Xulosa : Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo tuproqlari tabiiy sharoitlarga bog'liq holda turli xil ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu tuproqlar qishloq xo'jaligida keng qo'llanilib, aholining

²⁷

²⁸





oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq noto'g'ri foydalanish natijasida tuproqlarda sho'rlanish, eroziya va unumdorlikning pasayishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shuning uchun tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni qo'llash, meliorativ holatni yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash zarur. Faqat shundagina tuproq unumdorligini uzoq muddat davomida saqlab qolish va undan samarali foydalanish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'raqulov X.T. – **Tuproqshunoslik asoslari**, Toshkent, 2018.
2. Abdug'aniyev A. – **O'rta Osiyo tuproqlari geografiyasi**, Toshkent, 2016.
3. Karimov Sh. – **Qishloq xo'jaligi ekologiyasi**, Toshkent, 2019.
4. Dokuchayev V.V. – **Tuproqshunoslik asoslari**
5. UNEP – **Global Environment Outlook** (yer va tuproq resurslari bo'yicha)

